

**BADIIY TASVIR VOSITALARINING STILISTIK
FUNKSIYALARI VA MATN SEMANTIKASINI
SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI**

Mamatova Shahribonu Badriddin qizi

ToshDO‘TAU Qiyosiy tilshunoslik,

lingvistik tarjimashunoslik

2-kurs magistranti

shakhribonumamatova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy tasvir vositalarining nazariy mohiyati, ularning stilistik va semantik xususiyatlari hamda badiiy matn strukturasi shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Badiiy adabiyotda til nafaqat kommunikativ vosita, balki estetik ta’sir ko’rsatuvchi qudratli omil sifatida namoyon bo’lishi asoslanadi. Metafora, metonimiya, tashbeh, personifikatsiya, epitet, giperbola kabi tasviriy vositalarning muallif uslubini belgilash, obraz yaratish va g’oyaviy mazmunni chuqurlashtirishdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilishda nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy tasvir vositalari, lingvopoetika, stilistika, obrazlilik, metafora, metonimiya, epitet, tashbeh, giperbola, xiazm, parallelizm, antitezisa, anafora, alluziya.

Kirish

Badiiy adabiyot inson tafakkuri, estetik qarashlari va madaniy tajribasining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo’ladi. Unda til faqat axborot

uzatuvchi vosita emas, balki estetik ta'sir ko'rsatish, obraz yaratish va voqelikni badiiy talqin qilish imkonini beruvchi asosiy omildir. Badiiy matnning obrazlilik, emotsional ta'sirchanligi va estetik qiymati, avvalo, unda qo'llanilgan tasviriy vositalar bilan belgilanadi. Badiiy tasvir vositalari tilshunoslik va adabiyotshunoslik kesishgan nuqtada joylashgan murakkab lingvostilistik hodisa hisoblanadi. Ular stilistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib, muallifning individual uslubini shakllantirishda, qahramon xarakterini ochishda, peyzaj va portret tasvirlarini jonlantirishda muhim rol o'ynaydi. Metafora, metonimiya, tashbeh, personifikatsiya, epitet, giperbola kabi vositalar badiiy matnning semantik qatlamini chuqurlashtiradi va estetik yuklamasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, badiiy tasvir vositalarini tadqiq etish nafaqat matnning til xususiyatlarini, balki uning g'oyaviy-estetik mohiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tarjima jarayonida ushbu vositalar alohida murakkablik kasb etadi. Chunki ular milliy-madaniy kontekst, stilistik rang va konnotativ ma'no bilan chambarchas bog'liq bo'lib, boshqa tilga o'girilganda nafaqat leksik moslik, balki badiiy ta'sirni saqlash masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur maqolaning maqsadi — badiiy tasvir vositalarining nazariy asoslarini yoritish, ularning badiiy matndagi funksional xususiyatlarini aniqlash hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvostilistik muammolarni ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Badiiy asarlarda eng ko'p uchraydigan tasviriy vosita – **metafora**dir. Arastu bu atamani keng ma'noda qo'llagan. Faylasuf o'zining “Ritorika” asarida quyidagi fikrni ifodalaydi: “Metafora yuksak darajada aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o'rinli foydalanish nutqni bezaydi”¹ John Stephen esa “Metafora - biror narsa yoki harakatni tushuntirish maqsadida ma'lum bir boshqa obyekt xususiyatidan foydalanadigan adabiy tushuncha”² – deb ta'riflaydi. Metafora badiiy fikrni yangi talqinda keltiradi:

¹ O'zbek tilining milliy ensiklopediyasi. Jild 1, Toshkent, 2000

² O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1983, –B.246.

hayot charxpalakka qiyoslanganda uning aylanishi, o'zgaruvchanligi va doimiy takrorlanish xususiyati til orqali jonlanadi. Ingliz tilida misol: *Life is like a wheel of fortune*.

Metafora va tashbeh mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan badiiy tasvir vositalari hisoblansa-da, ular orasida uslubiy farqlar mavjud. Tashbehda predmet yoki hodisa boshqa bir predmetga maxsus ko'rsatkichlar orqali ochiq shaklda qiyoslanadi. Masalan, "*u sher kabi jasur*" ingliz tilida: "*he is as brave as a lion*" jummalari "kabi", "as...as" vositalar yordamida aniq ifodalangani tashbeh (simile)ga xosdir. Metaforada esa o'xshatish yashirin xarakterga ega bo'ladi. Unda predmetlar o'rtasidagi qiyos ochiq ko'rsatkichlarsiz, to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirish asosida yuzaga chiqadi. Masalan, "*u — sher*" yoki "*he is a lion*" birikmalarida qahramonning jasorati sher obraziga bevosita ko'chiriladi. Bu yerda qiyos emas, balki ma'no ko'chishi orqali obraz ifodalanadi. Demak, tashbehda o'xshashlik "-dek", "kabi", "go'yo" kabi ko'rsatkichlar yordamida aniq ifodalanadi ("*shamoldek yugurdi*", "*he ran as fast as the wind*"), metaforada esa mazkur vositalar ishtirok etmaydi va tasvir semantik ko'chish asosida shakllanadi.

Metanomiya "meta"-qayta, "anoma"-nom deganidir. Bu vosita orqali predmet yoki tushuncha unga yaqin bo'lgan semantik birlik bilan ifodalanadi. «Риторике к Гереннию» asarida Metonimiya ma'nodosh va mazmun jihatdan yaqin bo'lgan nomlardan, ya'ni bir nomni boshqa, o'zaro bog'liq nom orqali ifodalash sifatida tavsiflanadi. Unda qayd etilishicha, "Nomlar ularning ixtirochisi nomidan yoki ixtiro qilingan narsaning nomidan olinadi; egasidan harakatga yoki bajarilayotgan harakatdan uni bajaruvchisiga; yoxud ichidagidan ustiga, yoki aksincha, sirtdan uning ichidagi narsaga ko'chiriladi"³. Misol uchun "*Davlat qaror chiqardi*" "*The state has made a decision*"

³ Античные теории языка и стиля / под ред. О. М. Фрейденберг. — М.; Л.: Academia, 1936. — 344 с. — С. 222.

deganda aslida qaror prezident yoki uning vakillari tomonidan qabul qilinganligi anglashiladi;

Sinekdoxa badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida butun va qism o'rtasidagi nisbatga asoslangan ma'no ko'chishini ifodalaydi. Unda predmet yoki hodisa butun nomi bilan emas, balki uning tarkibiy qismi orqali, yoxud aksincha, qism o'rniga butun nomi orqali ifodalanadi. Bunday semantik almashinuv natijasida obyektlar va harakatlar o'rtasida mantiqiy hamda mazmuniy bog'liqlik yuzaga keladi. Masalan, "qo'l" so'zi orqali butun insonning mehnati yoki jismoniy faoliyati nazarda tutilishi sinekdoxaning tipik ko'rinishidir. Bu holatda qism (qo'l) butun (inson) o'rnida qo'llanib, umumiy ma'noni ixcham va obrazli tarzda ifodalaydi. Nazariy jihatdan sinekdoxa ko'pincha metonimiyaning xususiy ko'rinishi yoki darajasi sifatida talqin qilinadi. Chunki har ikki uslubiy vosita yaqinlik munosabatiga asoslanadi. Biroq metonimiya umumiyroq kategoriya bo'lib, u turli xil aloqadorlik (makoniy, sababiy, funksional va boshqalar) asosida ma'no ko'chishini qamrab oladi, sinekdoxa esa aynan butun–qism munosabatiga tayanishi bilan undan farqlanadi. Shu sababli, sinekdoxani metonimiyaning tarkibiy, torroq semantik ko'rinishi sifatida baholash ilmiy adabiyotlarda keng uchraydi.

Evfemizm atamasi yunon tilidagi *eu* — "yaxshi", *pheme* — "so'zlash, gapirish" ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib, nutqda ma'lum sabablar bilan qo'pol, noqulay yoki ijtimoiy jihatdan nozik hisoblangan birliklarni yumshoqroq, betarafroq yoki maqbulroq ifodalar bilan almashtirish hodisasini anglatadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar evfemizmni noo'rin yoki keskin birlikning o'rinli, kommunikativ jihatdan maqbul birlikka almashinuvi sifatida talqin etadilar.

Jumladan, A.A.Reformatskiy "Evfemizmlar taqiqlangan so'zlar o'rniga qo'llanishga ruxsat berilgan so'zlar" deya ta'rif beradi. "Лингвистический

энциклопедический словарь”da esa “Evfemizm – bu soʻzlovchi nazarida qoʻpol, noqulay boʻlgan soʻz va ifodalar oʻrnida qoʻllangan, ularga maʼnodosh boʻlgan emotsional betaraf soʻz va ifodalar” deyiladi⁴. Mazkur uslubiy vosita nutq etikasi, madaniy meʼyor va ijtimoiy kontekst bilan bevosita bogʻliq boʻlib, u kommunikativ jarayonda salbiy emotsional taʼsirni kamaytirish, suhbatdoshni ranjitmaslik yoki nozik mavzuni yumshoqroq tarzda yetkazish vazifasini bajaradi. Masalan, insonning jiddiy kasalligi haqida toʻgʻridan-toʻgʻri ogʻir tashxisni aytish oʻrniga “*oʻzimni yaxshi his qilmayapman*” yoki ingliz tilida “*I’m not feeling well*” tarzida ifodalash holatning keskinligini yumshatadi. Xuddi shuningdek, oʻlim hodisasi haqida “*oʻldi*” deyish oʻrniga “*hayotdan koʻz yumdi*” birikmasi; ingliz tilida esa “*died*” oʻrniga “*passed away*” shakli ishlatiladi. Bunday almashtirish nutqqa odobiylik, muloyimlik va emotsional neytrallik baxsh etadi. Shu jihatdan evfemizm nafaqat leksik almashinuv, balki ijtimoiy-psixologik va pragmatik funksiyaga ega boʻlgan stilistik vosita sifatida namoyon boʻladi.

Ironiya tashqi yuzaki mazmun bilan ichki real mazmun oʻrtasidagi ziddiyatni yaratadi; shunday ohangda aytilgan gap — “*juda namunali talaba ekansan*” “*You’re such a model student*”— aslida doimiy kechikish nuqtayi nazaridan tanqidiy maʼno kasb etadi. E.Ibragimova “Oʻzbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari” nomli dissertatsiyasida ironiyaning quyidagi ikki turi haqida maʼlumot beradi:

1. Situativ (vaziyatli) ironiya. Emotsional jihatdan aniq, ravshan ironiya hisoblanadi.

2. Assosiativ (darajali) ironiya. Badiiy asar tizimida oʻzining ifodalanish usuli, vositasi jihatidan murakkab xususiyatga ega boʻlgan ironik koʻrinishi.⁵

⁴ Qodirova, X. *Oʻzbek tilida evfemizm va disfemizm*. Toshkent, 2022, -B. 5..

⁵ Tursunova, S. “Ironiyaning turlari hamda ironik mazmun ifodalash usullari.” *Research Focus International Scientific Journal*, Uzbekistan, 2025, –B. 16–19

Ironiya ko‘pincha **giperbola** bilan uyg‘unlashadi. Giperbola voqea yoki predmetning xususiyatlarini ataylab haddan tashqari oshirish orqali ifodalanadi. Masalan, *“ming marta”* *“a thousand times”* degan ibora takrorlanayotganda voqeaning o‘lchami yoki ahamiyati ortiqcha tarzda ta’kidlanadi. Bu holatda giperbolaning oshirilgan ifodasi ironik ohang bilan birlashib, voqeani kulgili yoki keskin tarzda idrok qilish imkonini beradi va o‘quvchi yoki tinglovchi ongida kinoyali, nozik ta’sir uyg‘otadi.

Meyozis giperbolaning aksidir. U voqea, predmet yoki xususiyatni ataylab kamaytirish yoki kichraytirish orqali dramatik yoki ironik effekt yaratadi. Bu vosita matnda ahamiyat, intensivlik yoki o‘lchamni pasaytirish orqali voqeani yanada keskin, kulgili yoki kinoyali tarzda idrok etishga imkon beradi. Masalan, juda og‘ir ishni *“It takes a few minutes”* deb atash uning asl murakkabligini yanada kuchliroq sezdiradi; shuningdek, katta dengizni *“kichkina suv havzasi”* deb ta’riflash ham meyozisga misol bo‘la oladi.

Litota atamasi yunoncha “kichiklik” yoki “me’yoriylik” tushunchasidan kelib chiqqan bo‘lib, u ham ma’noni yumshatish vositasi sifatida ishlatiladi, biroq meyozisdan nozik farq qiladi. Litota odatda inkor yoki pasaytirish konstruktsiyalari orqali ifodalanadi va ko‘pincha aks ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, *“This is not bad”* iborasida yaxshi so‘zini bevosita ishlatmasdan, inkor orqali “yomon emas” deb ifodalash demakdir. Shu tariqa, litota pozitiv ma’noni inkor shaklida yetkazadi va natijada nutqqa nozik kinoyali ohang baxsh etadi.

Tashxis va jonlantirish san’ati adabiyotning stilistik tasvirlash uslublaridan yana biri bo‘lib, ilk marotaba xalq og‘zaki ijodida ko‘zga tashlanadi. Tojik adabiyotining taniqli adabiyotshunoslaridan biri To‘raqul Zehniy o‘zining «San’ati suxan» (So‘z san’ati) kitobida tashxis san’atiga quyidagicha izoh beradi: «Tashxis adabiyotda jonlantirish ma’nosida, jonsiz va tabiat hodisalariga jon ato etib, ularni odam ko‘rinishida namoyon etishi, turli xildagi hasharot va parrandalarni inson tilida gapirtirishdir. Shoir tashxis

san'ati bilan jonsiz narsalarga jon bag'ishlab, ularni odam ko'rinishida namoyon etadi»⁶ Bu uslubga misollarni adabiyot va kundalik til orqali ko'rish mumkin: "Shamol g'azab bilan esdi" — shamolga insonning his-tuyg'ulari baxsh etiladi.

Oksimoron (oxymoron yunoncha oksús "sharp, keen, pointed" o'tkir, keskin va mōros "dull, stupid, foolish" be'mani) so'zlarning bir biriga nomantiqiy bog'lanishidan hosil bo'lgan stilistik vosita bo'lib, ikki tilda og'zaki va yozmada ham juda keng qo'llaniladi. Shunday qilib, oksimoron oddiy nutqda bir-birini mantiqan istisno qiladigan mustaqil tushunchalarning birikmasidir. Demak, bu tropikaning asosi shunchaki qarama-qarshi tushunchalar emas, balki qutbli qarama-qarshiliklardir. Oksimoron badiiy adabiyotdagi eng original qurilmalardan biridir. "*Shirin azob*" yoki "*jonli sukunat*" "*Deafening silence*", "*bittersweet*" kabi birikmalar matnda qarama-qarshilikni yaratadi.

Epitet — badiiy matnda predmet yoki hodisaning muhim belgisini obrazli va emotsional-ekspressiv tarzda ifodalovchi tasviriy vositadir. U muallif munosabatini aks ettirib, matnning estetik va ta'sirchanlik darajasini oshiradi. "*Achchiq haqiqat, oq ko'ngil yoki shafqatsiz sovuq*", "*The cruel winter, the dark night*" kabilar bunga misol bo'la oladi.

Allegoriya(majoz)- ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa-buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirni ifodalovchi ramziy so'z obrazni qo'llash yani adabiy asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan tushunchani ko'pchilikka ma'lum bo'lgan narsalarga xos belgilar bilan ifodalash usuli. Masalan, "*The tortoise and the hare*" sekin va barqaror ishlash orqali muvaffaqiyatga erishishni bildirsa, *to'ti* so'zi gapdon ma'nosida, *bulbul*

⁶ Kayumov, N. "Tashxis va jonlantirish san'atining tarixi va nazariy masalalari." *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi*, 2017, –B. 88–92.

soʻzi yaxshi qoʻshiq aytuvchi, *boʻri*, *tulki* soʻzlaridan yomonlik, ayyorlik, yovuzlikni ifodalovchi salbiy maʼnolarda foydalaniladi⁷.

Allyuziyalar boy mazmunga ega, avvaldan tanish boʻlgan madaniy hodisalarga ishora qiluvchi semantik birliklardir. Ushbu stilistik vosita manba matndan yangi matnga qoʻshimcha maʼno va assotsiatsiyalarni olib kirishni taʼminlovchi matnlararo mexanizm sifatida talqin etiladi. Allyuziyalar turli maʼnolarga ega boʻlishi mumkin: diniy manbalar matni, mifologik syujetlar va personajlar, kino, adabiy asarlar, mashhur shaxslar, tarixiy voqealar, ijtimoiy hayot faktlari, maqollar, shuningdek, til va madaniyatning boshqa hodisalari⁸. Masalan, bir qahramonning sinovlari Rustam yoki Guliverning sarguzashtlariga qiyoslanganida, oʻquvchi bilan mavjud madaniy bilimlar bogʻlanadi va talqin kengayadi. Ushbu stilistik figurani oʻrganishga qaratilgan koʻplab tadqiqot ishlarga qaramasdan, V.Moskvin allyuziyani “stilistikaning eng kam aniqlangan kategoriyalaridan biri” deb hisoblaydi⁹. Biroq bizning obyektimiz boʻlgan asarda ushbu figurativ vosita koʻp marotaba qoʻllanilganini aniqladik va bunga kelgusi boblarimizda batafsil toʻxtalamiz.

Ikkinchi tur tasviriy vositalar — **fonetik** boʻlib, ular matnning tovush qiyofasini boyitadi, ritmik va musiqiy strukturani shakllantiradi hamda ifodaviylikni oshiradi. **Alliteratsiya** — bu **matnning boshida yoki soʻzlar ichida bir xil tovushlarning takrorlanishidir**. U matnga musiqiy ohang beradi va maʼlum soʻz yoki fikrlarni taʼkidlaydi. Adabiyotshunos U.Toʻychiev sheʼriyatda tovushning takror qoʻllanishi haqida: “Tovush takrori poeziyaning, xususan bolalar adabiyoti va qoʻshiq tekstlarining muhim fazilatidir. U sheʼr musiqiylikni kuchaytiradi, biroq ritmni hosil etolmaydi, ammo bezaydi. Agar

⁷Abduvaliyeva, Nodira Alisherovna, and Gulnoraxon Abdupatto qizi Moʻminjonova. “Allegorik obrazlarning tavsifiy talqini.” *International Scientific and Practical Conference “Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions and Development Prospects”*, 2024, –B. 110–112.

⁸Bozorova, Matluba Aminovna. “Allyuziya tushunchasi va uning turlari, oʻziga xos xususiyatlari.” *Proceedings of International Educators Conference*, 2024, –B. 148–150.

⁹Moskvin, V. P. “Аллюзия как фигура интертекста.” *Грани познания: электрон. науч.-образоват. журн.*, no. 1 (28), 2014, <http://grani.vspu.ru/files/publics/1389778094.pdf>. Accessed 2 Feb. 2026.

undosh tovushlar alliteratsiya priyomini yuzaga keltirsa, unli tovushlar assonans nomli tovush takrorini tashkil qiladi”¹⁰ deydi. Demak, alliteratsiya bu undosh, assonans unli tovushlarning nasr va nazmda takrorlanib kelishidir.

Qofiya – bu she’riy matnda **so‘zlarning oxiridagi tovushlarning uyg‘unlashishi** orqali ritmik va musiqiy ohang yaratadigan stilistik vositadir. Qofiya matnga **melodik uyg‘unlik, ritmik strukturani va estetik o‘qish qulayligini** ta’minlaydi, shuningdek, o‘quvchining diqqatini muhim fikrlarga qaratadi.

Good malt makes good beer,

Walk in, and they'll draw it here,

Good wine makes good brandy,

Give us a call, and you'll find it handy.

Ushbu parchada Charlz Dikkens qovoqxona peshtaxtasidagi e’lonni she’riy talqin qilganiga guvoh bo’lishimiz mumkin. Misralar oxiridagi *beer* – *here* hamda *brandy* – *handy* so’zlarining uyg‘unligi juft qofiya (aa bb) shaklini hosil qilib, ritmik izchillik yaratadi. Bu fonetik parallelizm oddiy savdo e’lonini she’riy tusga olib kiradi. Ritmik takror (*Good... Good...*) bilan birgalikda esa qofiya semantik urg‘uni yanada mustahkamlaydi.

Yana bir tasvir vositasi – **onomatopiya** voqeani yoki hodisani jonli eshitiladigan tovushlarga taqliq qilish orqali tasvirlaydi, bu esa tasvirni vizual va akustik jihatdan boyitadi. Fonetik vositalar poeziya va badiiy prozada keng qo‘llaniladi, ular matnga ohangdorlik, ritmik dinamiklik va o‘quvchi bilan o‘zaro hissiy aloqani yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

¹⁰ Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т., Фан, 1985. 205-бет.

Uchinchi tur — **sintaktik vositalar** bo‘lib, ular matnning tuzilishi va g‘oyaviy qatlamini boyitadi, fikrni yanada ifodali va sezilarli qiladi. Shulardan, **xiazm** (yun. *chiasm* — “kesishish, xochsimon joylashuv”) — sintaktik yoki leksik birliklarning A–B / B–A shaklida kesishma tartibda joylashuvi asosida yuzaga keladigan stilistik vositadir. Unda birinchi konstruksiyadagi elementlar keyingi konstruksiyada teskari tartibda takrorlanadi va shu orqali simmetrik, kontrastli yoki mantiqiy kuchaytirilgan tuzilma hosil qilinadi. Ta’bir joiz bo‘lsa, xiazm konstruktiv figura bo‘lib, ko‘pincha atamalarni kesishgan tarzda joylashtirishdan iborat AB/BA tuzilishiga qarab, ba’zan undan-da murakkabroq shakllarga ega stilistik figuradir. Xiazm bu parallel yoki antiteza hosil qilish uchun ikkita iboraning simmetrik qismlarida atamalar tartibini o‘zgartirishdan iborat nutq figurasidir. Matn birliklari bir xil tartibda paydo bo‘lganda parallelizm ABC/A'B'C' shaklda bo‘lsa, teskari parallelizm holatida esa birliklar markaz ABC/markaz elementi/CBA' ga nisbatan teskari tarzda joylashtiriladi¹¹.

“Ask not what your country can do for you — ask what you can do for your country.”

Bu klassik xiazmatik konstruksiya bo‘lib: **country – you / you – country** so‘zlari kesishmasida AB/BA tartib hosil qilinmoqda.

Xiazmning ajralmas tarkibiy qismlari bo‘lgan figuralar antiteza, anafora, antiklimaks, inversiya, sintaktik parallelizm, teskari takror, tautologiya – tazod ham xiazm singari qo‘shma gaplar orqali ifodalanadigan stilistik figuralardir.¹²

¹¹ **Bekmurodova, Z. E.** O‘zbek va fransuz tillarida xiazm hodisasining semantik-stilistik xususiyatlari : filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – Toshkent, 2024.

¹² **Bekmurodova, Z. E.** O‘zbek va fransuz tillarida xiazm hodisasining semantik-stilistik xususiyatlari : filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – Toshkent, 2024.

Yuqorida xiazmning ajralmas tarkibiy qismlari deb ta’kidlanayotgan badiiy tasvir vositalariga quyida tarif keltirdik.

Paralellizm — bu adabiyot va nutq san’atida keng qo’llaniladigan stilistik vosita bo’lib, grammatik yoki sintaktik tuzilmalarni takrorlash orqali matnga ritmik uyg’unlik, ohangdorlik va ifodaviylik baxsh etadi. U asosan fikrlarni ta’kidlash, kontrast yaratish, solishtirish yoki matndagi asosiy g’oyani yodda qoladigan shaklda taqdim etish maqsadida ishlatiladi. Paralellizmning mohiyati shundaki, muallif bir xil sintaktik shakl, so’z tartibi yoki iboralarni bir necha marta takrorlab, matnga ritmik va melodik ohang, estetik uyg’unlik yaratadi. Shu orqali o’quvchi yoki tinglovchining diqqatini muhim fikrlarga qaratish osonlashadi va matn esda qoladi. Misol uchun: *“Haqiqatni aytish oson, haqiqatni yashirish qiyin”, “Ask not what your country can do for you; ask what you can do for your country”*(John F. Kennedy). Bu yerda sintaktik paralellizm orqali kontrast fikrlar ta’kidlanyapti.

Qarama-qarshi fikrlarni yonma-yon qo’yib kontrast yaratishda qo’llaniladigan vosita – **antitezis**adir. Bunga Bekmuroda Zebiniso o’zining doktorlik dissertatsiyasida quyidagicha ta’rif keltiradi. Antiteza (antitezis – “qarama-qarshi qo’yish”, “zidlash”) deb mantiqiy jihatdan qiyoslanuvchi fikr, tushuncha, sezgi va timsollarni qarama-qarshi qo’yish, zidlash hodisasiga aytiladi. Voqea-hodisalar mohiyatidagi ziddiyatni ochish uchun, asosan, badiiy nutqda zid ma’noli qo’shimchalar, zidlovchi bog’lovchilar, so’z va iboralardan foydalaniladi. Badiiy matnni lisoniy jihatdan tahlil qilishda zidlantirishdan yozuvchining ko’zda tutgan maqsadi nima ekanligini aniqlash talab qilinadi. Yozuvchining mahorati zidlantirilayotgan voqeliklar uchun tanlangan ifoda materialida yanada aniq ko’rinadi¹³. Bunga misol : *“It was the best of times, it was the worst of times.”* (Charles Dickens, *A Tale of Two Cities*). Bu jumladagi

¹³ **Bekmurodova, Z. E.** O’zbek va fransuz tillarida xiaz m hodisasining semantik-stilistik xususiyatlari : filol. fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – Toshkent, 2024. – ____ B24.

best ↔ *worst* — to‘liq semantik qarama-qarshilik bo‘lib tarixiy davrning murakkabligini ko‘rsatadi.

“Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi.” Bu misolda esa *yaxshi* ↔ *yomon* — sifatlar kontrasti orqali ma’no kuchayadi.

Ellipsis — yana bir sintaktik darajadagi stilistik vosita bo‘lib, u nutq ixchamligini va kommunikativ intensivlikni ta’minlaydi. Ingliz tilida ellipsis ko‘proq yordamchi fe‘l va ega tushirilishi orqali yuzaga keladi. Masalan, dialogik nutqda qo‘llanadigan **“Coming?”** shakli to‘liq grammatik modelda — *“Are you coming?”* — ning qisqartirilgan variantidir. Ushbu konstruksiyada yordamchi fe‘l (*are*) va ega (*you*) tushirib qoldirilgan bo‘lsa-da, mazmun kontekst orqali to‘liq tiklanadi. Mazkur birlik kommunikativ tezkorlikni oshiradi, dialogga tabiiylik va og‘zaki nutqqa xos dinamiklik baxsh etadi. Shu tariqa, ellipsis sintaktik komponentlarning implitsit ifodalanishi asosida nutqni ixchamlashtiradi hamda pragmatik urg‘uni kuchaytiradi.

Inversiya (o‘zgargan so‘z tartibi) stilistik vosita sifatida alohida o‘ringa ega. U normativ so‘z tartibining o‘zgartirilishi asosida kommunikativ urg‘uni shakllantiradi hamda gap tarkibidagi muayyan bo‘lakni ajratib, ta’kidlab ko‘rsatish imkonini beradi. Inversiyaning asosiy vazifasi badiiy matnda, ayniqsa she’riy asarlarda, muallifning uslubiy maqsadini ro‘yobga chiqarish, asosiy fikrni emotsional va mantiqiy jihatdan kuchaytirish hamda o‘quvchi e’tiborini zarur semantik markazga yo‘naltirishdan iboratdir. Shu tariqa, fikrning tez va oson anglanishi ta’minlanadi.

Anafora va epifora sintaktik takrorning asosiy ko‘rinishlari hisoblanadi. **Anafora** — bir xil so‘z yoki so‘z birikmasining ketma-ket gaplar, misralar yoki sintaktik birliklar boshida takrorlanishi orqali yuzaga keladigan stilistik vosita bo‘lib, u matnning ritmik tuzilishini mustahkamlaydi va semantik markazni aniqlashtiradi. I. R. Galperin anaforani sintaktik takrorning ekspressiv shakli

sifatida talqin qilib, uning mantiqiy urg‘u va emotsional ta’sirni kuchaytirish funksiyasini alohida ta’kidlaydi¹⁴. Masalan, “*We shall fight on the beaches, We shall fight on the landing grounds...*” kabi nutq parchalarida bir xil konstruksiyaning boshlang‘ich pozitsiyada takrorlanishi ilgari surilayotgan g‘oyaning kuchini oshiradi. **Epifora** esa bir xil so‘z yoki birikmaning ketma-ket gaplar yoki misralar oxirida takrorlanishidir. Bunda semantik yuk yakuniy pozitsiyada to‘planadi va asosiy tushuncha mantiqiy jihatdan mustahkamlanadi. I.V.Arnold epiforani ekspressiv sintaktik vosita sifatida tavsiflab, uning yakuniy pozitsiyada joylashuvi tufayli kuchli emotsional ta’sir hosil qilishini ko‘rsatadi¹⁵. Masalan, “*I want freedom, they demand freedom, we all deserve freedom*” kabi konstruksiyada “*freedom*” leksemasining takrorlanishi orqali epifora vositasi yuzaga keladi. Demak, anafora va epifora struktur jihatdan takror prinsipiga asoslangan bo‘lsa-da, pozitsion farqi sababli funksional jihatdan turlicha urg‘u hosil qiladi: anafora boshlang‘ich, epifora esa yakuniy segmentni semantik markazga aylantiradi. Har ikki vosita badiiy matnda muallifning uslubiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Yuqorida sharhlangan stilistik vositalar badiiy asarning poetik tuzilishida muhim kommunikativ yukni bajaradi; xususan, ular bizning tadqiqot obyektimizda keng qo‘llangan bo‘lib, matndagi obrazlilik va ifodaviylikning yaratilishida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, keyingi bo‘limlarda ushbu vositalarning aniq matndagi namoyon bo‘lish shakllari va ularning badiiy-estetik funksiyalari bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.

¹⁴ Galperin I. R. *Stylistics*. – Moscow: Vysshaya shkola, 1977.

¹⁵ Arnold I. V. *Stylistics of Modern English*. – Moscow: Prosveshchenie, 1990.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдувалиева Нодира Алишеровна, Мўминжонова Гулнорахон Абдупатто қизи. Allegorik obrazlarning tavsifiy talqini // *International Scientific and Practical Conference “Actual Issues of Primary Education: Problems, Solutions and Development Prospects”*. – 2024.
2. Arnold I. V. *Stylistics of Modern English*. – Moscow: Prosveshchenie, 1990.
3. Bozorova M. A. Allyuziya tushunchasi va uning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari // *Proceedings of International Educators Conference*. – 2024. – B.
4. Galperin I. R. *Stylistics*. – Moscow: Vysshaya shkola, 1977.
5. Moskvina V. P. Аллюзия как фигура интертекста // *Грани познания: электронный научно-образовательный журнал*. – 2014. – № 1 (28). – URL: <http://grani.vspu.ru/files/publics/1389778094.pdf> (murojaat sanasi: 02.02.2026).
6. Qodirova X. *O‘zbek tilida eyfemizm va disfemizm*. – Toshkent, 2022.
7. Тўйчиев У. *Ўзбек поэзиясида аруз системаси*. – Тошкент: Фан, 1985.
8. *O‘zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
9. *O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi*. 1-jild. – Toshkent, 2000.